XALQ DEPUTATLARI YANGIYO'L TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar VI-54-1-10-146-K/23 Yangiyo'l tuman hokimligi

Yangiyo'l tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrida va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida 27-dekabrda qabul qilingan "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni bilan 2023-yil budjet parametrlari ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-99-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli "Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan Xalq deputatlari Yangiyo'l tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi

VI-67-1-10-0-K/23-sonli “Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvar kunidagi “2023-yil uchun Toshkent viloyati mahalliy budjet parametrlari to‘g‘risida”gi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Yangiyo‘l tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari jami **89 112 441 ming.so‘m** shundan soliq tushumlari **57 605 431 ming.so‘m**, aksiz solig‘i **31 507 010 ming.so‘m** va xarajatlari **164 803 859 ming.so‘m** prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Yangiyo‘l tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat Toshkent viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **75 691 418 ming.so‘m** miqdorida 4-ilovaga belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari **1 554 753 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Tuman budjetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Toshkent viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2023-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 016 212 ming.so‘m** 5-ilovaga belgilansin.

9. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 6-7-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdori 1 koeffitsentda bo‘lib, belgilangan qiymati 1,0 mln.so‘m miqdorida 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 64 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 64 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib berilishi ma’lumot va raxbarlik uchun qabul qilinsin.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkazilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

11. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi ma’lumot va raxbarlik uchun qabul qilinsin.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha

mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi ma’lumot va raxbarlik uchun qabul qilinsin;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Yangiyo‘l tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.P.Abdurasulov), Moliya bo‘limi (N.R.Musurmonqulov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.P.Abduvaliyev), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Yangiyo‘l tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.P.Abduvaliyev) Davlat soliq boshqarmasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini

ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Yangiyo‘l tuman soliq inspeksiyasi (A.P.Abduvaliyev) tuman hokimligi, tegishli idorlalar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Yangiyo‘l tuman bo‘limi (X.Ondaev) tuman soliq inspeksiyasi (A.P.Abduvaliyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvatlash bo‘limi (A.S.Ibragimov), tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman hokimi o‘rinbosari (A.A.Abdullayev), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

18. Tuman hokimining investitsiya va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman soliq inspeksiyasi (A.P.Abduvaliyev), tuman moliya bo‘limi (N.R.Musurmonqulov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Tuman hokimi investitsiya va tashqi savdo masalalri bo‘yicha o‘rinbosari, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman hokimi o‘rinbosari (L.M.Badalov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.P.Abduvaliyev), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur

iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Yangiyo‘l tuman ichki ishlar bo‘limi (R.V.Abdusamatov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Sh.Fayzullayev), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (O.Satimov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Tuman Xalq ta’limi bo‘limi mudiri (A.A.Xalikov), tuman Davlat maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri (D.Sultonova) va tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi bosh shifokori (S.Umirzaqov)lar:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengasha axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

23. Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashini “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si raisi O.A.Normirzayev:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi

ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Tumanlar hokimligi:

Tuman va shahar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

Tuman hokimligining Axborot xizmati (R.Xolmurotova)ga mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

25. Yangiyo‘l tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.P.Abdurasulov), xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Yangiyo‘l tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27. Yangiyo‘l tuman hokimligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2020-yil 11-dekabr kunidagi KQ-161-IV-sonli qarori asosida Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashi kotibiyatiga 200 % ustama to‘lovi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi rahbari raisligida

kengaytirilgan tarzda o‘tkazilga yig‘ilish bayonnomasi hamda Adminstratsiya rahbarining 2019-yil 24-yanvardagi 04/1-261-raqamli ko‘rsatma xatiga va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2021-yil 25 yanvardagi VI/XXIII-VI-sonli, shuningdek Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashining 2021-yil 10-fevraldagi VI/XXIV-VII-sonli qarori kabi hujjatlar talablarining ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi , tuman moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik bo‘limi, tuman Pensiya jamg‘armasi, tuman Kengashi kotibiyati hodimlariga (har oy uchun 200 %) 2023-yildagi daromadlar rejasining ortirib bajarilgan qismi hisobidan belgilangan miqdorlarda ustamalar to‘lanilishini tashkil qilinishiga qat’iy e’tibor berilsin.

28. Yangiyo‘l tuman hokimligi matbuot xizmati (R.Xolmurotova):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.yangiyol.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

29. Yuqorida qayd qilib yozilgan, qaror yo‘nalishlari E-qaror asosida tasdiqlanib e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

30. Yuqorida qayd qilib yozilgan, qarorlarining ijrosi va amalga oshirilishini nazorat qilish, Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashini “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si raisi O.A.Normirzayev va Yangiyo‘l tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari E.P.Abdurasulovlar zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Yalgashev**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023 YIL UCHUN TOSHKENT VILOYATI YANGIYO‘L TUMANI BO‘YICHA

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

Daromad turlari		**Summa ming so‘m**	**Ajratma Me’yori**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	4 014 554	10%
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	6 663 459	50%
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 227 980	10%
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 410 000	100%
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 064 127	20%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 451 353	20%
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 254 473	100%
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 751 133	10%
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 248 253	100%
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	5 471 663	100%
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 687 236	100%
9	Davlat boji		
10	Jarimalar		
11	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari		
9	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	388 200	100%
10	Yig‘imlar		
11	Xususiylashtirish		
12	Boshqalar		
JAMI		**57 605 431**	
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**31 507 010**	
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	12 746 200	
14	Mobil aloqa xizmati	5 467 379	
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	13 293 431	

JAMI DAROMAD	**89 112 441**	

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023 YIL UCHUN TOSHKENT VILOYATI YANGIYO‘L TUMANI BO‘YICHA MAHALLIY BUDJET XARAJATLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori** (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**164 803 859**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**111 944 883**
1.1	Maorif	23 204 810
	- maktabgacha ta’lim	7 565 757
	- umumiy ta’lim	15 639 053
1.2	Sog‘liqni saqlash	58 740 220
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	-
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 373 320
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 196 887
	- sport	4 176 433
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	24 434 572
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	18 400
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	173 561
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**17 419 251**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	711 075
2.2	Obodonlashtirish	12 279 039
2.3	Issiqlik ta’minot korxonalariga subsidiyalar	
2.7	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 898 343
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1 009 375
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 521 419

3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**22 708 435**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	22 708 435
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3 402 770**
5	**Zahira jamg‘armasi**	**1 554 753**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**7 773 767**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Yangiyo‘l tumani**	10	10	20	10	20	50	100	100

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
4-ilova

Toshkent viloyati shahar va tumanlar budjetlariga 2023-yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Summa
1	Yangiyo‘l tumani	75 691 418.0

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
5-ilova

Toshkent viloyati viloyat, shahar va tumanlar budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori ming so‘mda

ming.so‘m

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Yangiyo‘l tumani	1 016 212.0

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
6-ilova

Yangiyo‘l tumanda jismoniy shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalari

so‘mda

T/r	Tuman (shahar) hududlari (MFY, OFY, dahalar, ko‘chalar)	1 kv.metr uchun	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7-3,0)		Daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 1kv.metr uchun yer solig‘i
		bazaviy soliq stavkasi	Kamayti-ruvchi	Oshiruv-chi	
1	Axil MFY	297		1,2	356,4
2	Baytish MFY	297		1,0	297,0
3	Binokor MFY	297		1,1	326,7
4	Bunyodkor MFY	297		1,0	297,0
5	Bo‘ston MFY	297		1,0	297,0
6	Vatan MFY	297	0,7		207,9
7	G‘alaba MFY	297		1,2	356,4
8	Gulbaxor MFY	297		1,2	356,4
9	Gulbog‘ MFY	297		1,0	297,0
10	Guliston MFY	297		1,2	356,4
11	Darxon MFY	297		1,0	297,0
12	Dexkonobod MFY	297	0,7		207,9
13	Do‘stlik MFY	297	0,7		207,9
14	Yoshlik MFY	297		1,2	356,4
15	Jambul MFY	297	0,9		267,3
16	Ibrat MFY	297		1,0	297,0
17	Isloxot MFY	297	0,8		237,6
18	Ittifoq MFY	297		1,0	297,0
19	Iftixor MFY	297	0,7		207,9
20	Kesken MFY	297	0,8		237,6
21	Qirariq MFY	297		1,3	386,1
22	Kirsadak MFY	297		1,0	356,4
23	Kovunchi MFY	297		1,2	326,7
24	Kora tepa MFY	297		1,1	356,4
25	Kukalamzor MFY	297		1,2	297,0
26	Kush yogoch MFY	297		1,0	326,7
27	Kush tepa MFY	297		1,1	297,0
28	Madaniyat MFY	297		1,0	237,6
29	Markaz MFY	297	0,8		297,0
30	Mingbulok MFY	297		1,0	207,9
31	Mirzo Ulug‘bek MFY	297	0,7		207,9
32	Mirishkor MFY	297	0,7		356,4
33	Navbaxor MFY	297		1,2	326,7
34	Namuna MFY	297		1,1	326,7
35	Niyozbosh MFY	297		1,1	207,9
36	Nixol MFY	297	0,7		326,7
37	Nurafshon MFY	297		1,1	326,7
38	Nurobod MFY	297		1,1	297,0
39	Obod MFY	297		1,0	207,9
40	Ozod MFY	297	0,7		326,7
41	Olmazor MFY	297		1,1	297,0
42	Paxta MFY	297		1,0	297,0
43	Pistalik MFY	297		1,0	326,7
44	Registon MFY	297		1,1	356,4
45	Said-ota MFY	297		1,2	356,4
46	Samarkand MFY	297		1,2	267,3
47	Saxovat MFY	297	0,9		297,0
48	Soxibkor MFY	297		1,0	386,1
49	Tuya bug‘iz MFY	297		1,3	207,9
50	Umid MFY	297	0,7		356,4
51	O‘zbekiston bekati MFY	297		1,2	356,4
52	O‘zbekiston MFY	297		1,2	356,4
53	Farovon MFY	297		1,2	297,0
54	Xakikat MFY	297		1,0	326,7
55	Xalkobod MFY	297		1,1	326,7
56	Xonkurgon MFY	297		1,1	207,9
57	Xujaobod MFY	297	0,7		326,7
58	Chamanzor MFY	297		1,1	326,7
59	Chang tepa MFY	297		1,1	356,4
60	Shodlik MFY	297		1,2	237,6
61	Sho‘ralisoy MFY	297	0,8		237,6
62	Epkendi MFY	297	0,8		356,4
63	Yuksalish MFY	297		1,2	297,0

64	Yangiyul MFY	297		1,0	297,0

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
7-ilova

Yangiyo‘l tumanda yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalari

ming.so‘mda

T/r	Tuman (shahar) hududlari (MFY, OFY, dahalar, ko‘chalar)	1 ga uchun	Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7-3,0)		Daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 1 ga uchun yer solig‘i
		bazaviy soliq stavkasi	Kamayti-ruvchi	Oshiruv-chi	
1	Axil MFY	36 300		1,2	43 560,0
2	Baytish MFY	36 300		1,0	36 300,0
3	Binokor MFY	36 300		1,1	39 930,0
4	Bunyodkor MFY	36 300		1,0	36 300,0
5	Bo‘ston MFY	36 300		1,0	36 300,0
6	Vatan MFY	36 300	0,7		25 410,0
7	G‘alaba MFY	36 300		1,2	43 560,0
8	Gulbaxor MFY	36 300		1,2	43 560,0
9	Gulbog‘ MFY	36 300		1,0	36 300,0
10	Guliston MFY	36 300		1,2	43 560,0
11	Darxon MFY	36 300		1,0	36 300,0
12	Dexkonobod MFY	36 300	0,7		25 410,0
13	Do‘stlik MFY	36 300	0,7		25 410,0
14	Yoshlik MFY	36 300		1,2	43 560,0
15	Jambul MFY	36 300	0,9		32 670,0
16	Ibrat MFY	36 300		1,0	36 300,0
17	Isloxot MFY	36 300	0,8		29 040,0
18	Ittifoq MFY	36 300		1,0	36 300,0
19	Iftixor MFY	36 300	0,7		25 410,0
20	Kesken MFY	36 300	0,8		29 040,0
21	Qirariq MFY	36 300		1,3	47 190,0
22	Kirsadak MFY	36 300		1,0	36 300,0
23	Kovunchi MFY	36 300		1,2	43 560,0
24	Kora tepa MFY	36 300		1,1	39 930,0
25	Kukalamzor MFY	36 300		1,2	43 560,0
26	Kush yogoch MFY	36 300		1,0	36 300,0
27	Kush tepa MFY	36 300		1,1	39 930,0
28	Madaniyat MFY	36 300		1,0	36 300,0

29	Markaz MFY	36 300	0,8		29 040,0
30	Mingbulok MFY	36 300		1,0	36 300,0
31	Mirzo Ulug‘bek MFY	36 300	0,7		25 410,0
32	Mirishkor MFY	36 300	0,7		25 410,0
33	Navbaxor MFY	36 300		1,2	43 560,0
34	Namuna MFY	36 300		1,1	39 930,0
35	Niyozbosh MFY	36 300		1,1	39 930,0
36	Nixol MFY	36 300	0,7		25 410,0
37	Nurafshon MFY	36 300		1,1	39 930,0
38	Nurobod MFY	36 300		1,1	39 930,0
39	Obod MFY	36 300		1,0	36 300,0
40	Ozod MFY	36 300	0,7		25 410,0
41	Olmazor MFY	36 300		1,1	39 930,0
42	Paxta MFY	36 300		1,0	36 300,0
43	Pistalik MFY	36 300		1,0	36 300,0
44	Registon MFY	36 300		1,1	39 930,0
45	Said-ota MFY	36 300		1,2	43 560,0
46	Samarkand MFY	36 300		1,2	43 560,0
47	Saxovat MFY	36 300	0,9		32 670,0
48	Soxibkor MFY	36 300		1,0	36 300,0
49	Tuya bug‘iz MFY	36 300		1,3	47 190,0
50	Umid MFY	36 300	0,7		25 410,0
51	O‘zbekiston bekati MFY	36 300		1,2	43 560,0
52	O‘zbekiston MFY	36 300		1,2	43 560,0
53	Farovon MFY	36 300		1,2	43 560,0
54	Xakikat MFY	36 300		1,0	36 300,0
55	Xalkobod MFY	36 300		1,1	39 930,0
56	Xonkurgon MFY	36 300		1,1	39 930,0
57	Xujaobod MFY	36 300	0,7		25 410,0
58	Chamanzor MFY	36 300		1,1	39 930,0
59	Chang tepa MFY	36 300		1,1	39 930,0
60	Shodlik MFY	36 300		1,2	43 560,0
61	Sho‘ralisoy MFY	36 300	0,8		29 040,0
62	Epkendi MFY	36 300	0,8		29 040,0
63	Yuksalish MFY	36 300		1,2	43 560,0
64	Yangiyul MFY	36 300		1,0	36 300,0

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-54-1-10-146-K/23-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Yangiyo‘l tumani	1.00	1 000 000.0